XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Chiroqchi, +998 97 617 1952, kengashchiroqchi@gmail.com

2025-yil 22-oktabr VII-11-67-4-66-K/25 Chiroqchi tumani

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Chiroqchi tumanidagi mavjud geografik obekt (29 ta qabriston va bitta ko‘cha)larga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 05-19-10298-sonli yig‘ilish bayonnomasi va “Geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini, shuningdek “Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 07-15/5832-sonli komissiya xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va , 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Chiroqchi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 05-19-10298-sonli yig‘ilish bayonnomasi va “Geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini, shuningdek “Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 07-15/5832-sonli komissiya xulosasini asos uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 05-19-10298-sonli yig‘ilish bayonnomasi va “Geografik obyektlarga

nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan tumandagi mavjud 29 ta qabristonlarning qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Iftihor mahalla fuqarolar yig‘inidagi nomsiz ko‘chaga “Langar” (X-39'3'2482'N 66'34'34.00'E Y-39'3'42.75'N 66'34'36 15'E) ko‘chasi deb nom berish taklifi ma’qullansin.

4.Tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kamunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (B.Norqobilov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Abdullayev), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i bilan birgalikda:

- bir oy muddatda tumandagi mavjud qabristonlar va ko‘chalarni ushbu qarorga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarini o‘rnatish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha tuman komissiyasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

- tumandagi mavjud qabristonlarning kadastr xujjatlarini rasmiylashtirish;

- o‘zgargan qabriston nomlarini va ko‘chalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni amalga oshirsinlar.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (S.Raimqulov), “Chiroqchi” gazetasi tahririyatilarga:

- O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida olib borilgan ishlarni ommaviy axborot vositалари hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Ishtemirov) hamda Chiroqchi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (G.Haqberdiyeva) zimmasiga yuklatilsin.

7.Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi  YUSUPOV FAYZULLA YAKUBOVICH

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashining
2025-yil 22-oktabrdagi
VII-11-67-4-66-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Chiroqchi tumanidagi Reesterga kiritilishi lozim bo‘lgan qabristonlar
RO’YXATI

T/R	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Izoh
1	3	4	5	6
1	Langar MFY	Mevali	Mevali	Qabriston yang tashkil topgan,qabriston atrofi mevali daraxtlar bilan o‘ralgani uchun shu nom bilan atalgan.
2	Langar MFY	Xujag‘arovli	Xujag‘arovli	Qabriston eski,yopilgan holatda bo‘lgan,keyinchalik aholi soni oshgandan so‘ng ,yer maydoni kengaytirilib,qayta ishga tushgan. Qadimgi o‘zbek urug‘larining nomiga qo‘yilgan.
3	Langar MFY	Gulgun	Gulgun	Qabriston XVII asrda tashkil etilgan. Bu qabriston ham yer maydoni kengaytirilib, qayta ishga tushgan. Qadimgi qishloq nomiga qo‘yilgan.
4	Langar MFY	Tulako‘l	Tulako‘l	Qabriston 1972 yilda tashkil topgan. Tul- arabcha so‘z bo‘lib, ”uzun,chuzinchoq” ma’nosini anglatadi. Qabriston yonida ko‘l borligi uchun ,shu nom bilan atalgan.

5	Langar MFY	Tulakoʻl-2	Tulakoʻl-2	Maʼlumot yuqorida keltirilgan
6	Oq oltin MFY	Odir bobo	Qazoyoqli	Qazyoqli qabristoni XIV asrda tashkil etilgan boʻlib, qadimda qishloq shu nom bilan atalgani uchun qabristonga Qazoyoqli nomi berilgan.
7	Olmazor MFY	Qoratelpak-2	Qoratelpak-2	Qabriston 2023-yilda tashkil topgan.Eski Qoratelpak qabristoni bir qarashda telpak shaklini bergani uchun xalq tilida Qoratelpak nomini olgan. Shu nom yangi qabristonga berilgan.
8	Quruqsoy MFY	Qiyot	Qiyot	Qabriston qadimda paydo boʻlgan.Aholi soni koʻpaygandan soʻng yer maydoni kengaytirilib,qayta tashkil etilgan boʻlib ,Qiyot-qadimgi oʻzbek urugʻI nomiga qoʻyilgan
9	Quruqsoy MFY	Xoʻja ulming baraka	Xoʻja ulming baraka	Qabriston XVIII-XIX asrlarda tashkil etilgan, dastlab qabristonda xoʻjalar dafn qilinganligi sababli Xoʻja ulming baraka deb nom olgan.
10	Quruqsoy MFY	Buzovut-2	Buzovut-2	Qabriston XV-XVI asrda tashkil etilgan. Qadimdan qishloq ahli qishloqda chorva uchun moʻljallangan joy tashkil qilgan. Xalq tilida buzoq oʻtlaydigan joy nomi Buzovut deyilgan. Shunga koʻra qabriston nomi qishloq nomiga qoʻyilgan .
11	Quruqsoy MFY	Xezalak	Beshariq	Qabriston XIX- XX asrlarda tashkil togan. Qishloqning nomi avval Xezalak boʻlgan. Qishloq nomi Beshariq boʻlib, oʻzgargandan keyin, qabriston ham shu nom bilan ataldi.
12	Galabek MFY	Davtosh	Davtosh	Qabriston XIX-XX asrlarda tashkil etilgan. Dav-katta,ulkan.Qishloq atrofida katta hajmli toshlar joylashgani uchun ,qishloq nomi shunday atalgan. Shundan soʻng bu joyni Davtosh qabristoni deb nomlaganlar.

13	Chambil MFY	Nov	Oqchova-1	Qabriston XIX-XX asrlarda tashkil etilgan.Oqchova-toshdan hosil bo‘lgan tepalik ma’nosini bildiradi . Tog‘lik hudud bo‘lgani uchun qishloq nomi shunday ataladi. Qabristonlar qishloq nomiga Oqchova deb yuritilgan.
14	Chambil MFY	Boyg‘ozibek	Oqchova-2	Ma’lumot yuqorida keltirilgan
15	Chambil MFY	Ko‘rbuloq	Oqchova-3	Ma’lumot yuqorida keltirilgan
16	Tarag‘ay MFY	Muhammad Tarag‘ay	Yuqori Tarag‘ay	Qabriston XIX-XXasrlarda tashkil etilgan .Tarag‘ay-o‘rmonsiz, taqir joy –ma’nosini anglatadi. Qadimdan qishloq nomi Tarqg‘ay deb yuritilgani uchun ,qabriston ham shunday nomlandi.Qabriston qishloqning yuqori qismida joylashgan.
17	Obod MFY	Maxmud ota	Langar-2	Qabriston 2001-yilda tashkil topgan. Qishloqning nomi Langar deb atalgani uchun ,qabriston nomi qayta Langar deb ataldi. Langar- karvonsaroy, bekat-ma’nolarini anglatadi.
18	Paxtaobod MFY	Tuyma	Tuyma	Qabriston 1993-yilda tashkil topgan. Qishloq o‘rtasidagi tepalik xalq tilida tugmaga o‘xshatilgani uchun Tuyma deb nomlangan . Qabriston shu tepalikda joylashgani uchun ,nomi Tuyma deb yuritilyapti.
19	Chambil MFY	Eski kiyikmozor	Eski kiyikmozor	Qabriston XIX-XX asrlarda tashkil topgan. Aytishlaricha, ona kiyik bolasi bilan yovdan qochib, bir tuqayga yashiringan. Xalq orasidagi afsonaga asosan, shu joyda tashkil topgan qabristonga Eski kiyikmozor nomi berildi.
20	Navoiy MFY	Polvonxon eshon bobo	Tabarruk zotlar	Qabriston juda qadimiy bo‘lib,eshon bobolar qabri joylashgan. Shuning uchun qabriston nomi Tabarruk zotlar deb ataldi.

21	Chorshanba MFY	Xuja Abdiqaxxor	Xo‘ja	Qabriston 2006-yilda tashkil topgan, kichik maydonni egallagan. Qabristonga faqat xo‘ja urug‘iga mansub kishilar dafn etiladi. Shunga ko‘ra , qabriston nomi ham “Xo‘ja”deb nomlandi
22	G‘allachi MFY	Yuraktepa	Yuraktepa	Qabriston 1903-yilda tashkil topgan .Yuraktepa–ma’joziy ma’noda qo‘llanib kelinmoqda.Shunga ko‘ra qabriston nomi atalgan.
23	Qo‘rg‘on tepa MFY	Qo‘rg‘ontepa	Qo‘rg‘ontepa	Qabriston 1948-yilda tashkil topgan.Qo‘rg‘ontepa tepalagi mavjud bo‘lgani uchun ,mahalla,qishloq hamda qabriston shu nom bilan atalib kelinmoqda.
24	Gulobod MFY	Gulobod	Qulchan	Qabriston 2024-yilda tashkil topgan.Qulchan-qarluq qabilasi urug‘laridan birining nomi.
25	Arabbandi MFY	Alla ovchi	Arabbandi-2	Qabriston eski qabristonlardan, qishloqning nomi bilan atalgan. Arabbandi-arabcha to‘g‘on – ma’nosini bildiradi.
26	Yangiqurilish MFY	Xuja abdijabbor-2	Jannat darvozasi	Qabriston 1945-yilda tashkil topgan. Oqsoqollar shu nomni ma’qullab taklif berishdi.
27	Mirzatup MFY	Mirzatup	Mirzatup	Qabriston 1936-`yilda tashkil topgan. Qishloqning nomiga atab qo‘yilgan. Mirzo- so‘zi amaldor, yirik zadogon ma’nolarida qo‘llangan. Shunga ko‘ra - zodagonlar to‘plangan- ma’nosida kelgan.
28	Beshbuloq MFY	Uyshun	Uyshun	Qabriston 1876-yil tashkil topgan. Qishloqning nomi Uyshun bo‘lganligi uchun , qabriston shu nom bilan atalgan.
29	Sohil MFY	G‘orovli	G‘orovli	Uyshun – manbalarda – o‘rmon odami – ma’nosini anglatgan.